

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№3

2026
MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, mart.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RNI	24
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI VA SOLIQ TUSHUMLARI DINAMIKASI: O'ZBEKISTON MISOLIDA ILMIY TAHLIL	30
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI KELITIRIB CHIQUARUVCHI ASOSIY OMILLAR HAMDA IQTISODIYOTGA TA'SIRI	37
Toxtabayev Oybek Odilovich	
QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV	42
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTON GLOBAL-IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI	48
Kuvatova Oliya Sheraliyevna	
QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	54
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR DAVRIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI	61
Yangiboyev F.B.	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ERTA ANIQLASH VA BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN RISK-INDEKS MODEL I	68
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich, Rajabov Shoxrux Suvon o'g'li	
RUX VA QO'RG'OSHINNI SELEKTIV AJRATIB OLISHNI KOMBINATSIYALASH TEXNOLOGIYASI VA NAZARIYASI.....	74
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Haqberdiyev Dilshod Qodir o'g'li	
UY-JOY QURILISHI HAJMINI UZOQ MUDDATLI PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	81
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQLIM VA TABIIY OFATLAR NATIJASIDA YETKAZILDAN TALOFATLARNI DAVLAT TOMONIDAN KOMPENSATSIYA QILISH MEKANIZMI.....	85
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MEKANIZMLARI.....	90
Abdug'aniyev Uchqun Habibulla o'g'li	
O'ZBEKISTON QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA TENDENSIYALARI	96
Musaeva Aynura Abayxolievna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL INFRASTRUCTURE TRANSFORMATION IN THE CONTEMPORARY ENVIRONMENT.....	104
Normurodov Khusan Eshmakhmatovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI BAHOLASH YO'LLARI	108
Begamov S.X.	
DEBITORLIK QARZLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI	112
Normatova Gulmira Xayrullaevna	



SOLIQLARNI PROGNOZLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....	118
Ergashov Jamshid Ashurovich	
MEHNAT XARAJATLARI HISOB: NAZARIY ASOSLAR, USULLAR VA BOSHQARUVDA AHAMIYATI.....	126
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
KORPORATIV XIZMATLARNING BANK FOYDASIGA TA'SIRI: KOMISSION VA FOIZLI DAROMADLAR TAHLILI	131
Qurbonov Abror Abdullayevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILY MEXANIZMLARI	136
Djamalov G'ofir Oribjanovich	
OCHIQLIK INDEKSI VA KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASH SAMARADORLIGI: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING INSTITUTSIONAL TAHLILI	144
Dilshod Pulatov, Uchqun Abdug'aniyev	
DUNYO SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIVAVIY HOLATI VA NATIJALARI TAHLILI	153
Alimov Baxodir Batirovich	
QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	160
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
QURILISH TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI	164
Muxibova Guli Yarkinovna, Sharifxodjayeva Odina Ulug'bek qizi	
AXBOROT-RESURS MARKAZLARINING TALIM JARAYONIGA TA'SIRINI BAHOLASH	168
Pirmedova Xayitgul Muxammedovna	
IJTIMOY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI: XALQARO TAJRIBA VA INSTITUSIONAL YONDASHUVLAR	173
Bafoyev Farrux Jo'raqulovich	
KORXONALARDA AI-DRIVEN "DECISION SUPPORT SYSTEMS" (DSS)NI JORIY ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Mardanova Ra'no	
STRENGTHENING THE FINANCING OF FAMILY-OWNED ENTERPRISES IN UZBEKISTAN THROUGH BANK CREDIT	186
Baymuratova Zina Aqilbekovna, Ibadullaeva Asal Ulugbek qizi	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH	192
Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich	
ATTRACTING INVESTMENTS FROM FINANCIAL MARKETS AND FACTORS INFLUENCING THE INCREASE OF THEIR ATTRACTIVENESS	196
Kholov Sherali Akhrorboyevich	
MARKAZIY OSIYODA TRANSCHEGARAVIY SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA ADOLATLI TAQSIMLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	200
Matkarimov Mansur	
XALQARO XIZMATLAR SAVDOSIDA TIBBIY TURIZMNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	206
Farxodova Shohnova Umidbek qizi	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING KO'P OMILLI INDIKATORLARI TIZIMI	213
Ibroximov Iloxomjon Shavkatjon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINI IQTISODIY FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	219
Tillayeva Barno Ramiziddinova	
NOTIJORAT TASHKILOTLAR FAOLIYATIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVI VA AUDITORLIK HISOBOTLARINING O'ZIGA XOSLIGI	224
Xolmirmayev Ulug'bek Abdulazizovich, Ubaydullayev Toxirjon Abdullajanovich	



ЦИФРОВЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ РЕИНТЕГРАЦИИ ВОЗВРАЩАЮЩИХСЯ ТРУДОВЫХ МИГРАНТОВ: МЕЖДУНАРОДНАЯ ПРАКТИКА И ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ КЫРГЫЗСТАНА.....	230
<i>Амантурова Дилбара Кыдыкбековна</i>	
РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЛЕКСИКИ В ЯЗЫКОВОЙ ПОДГОТОВКЕ ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ.....	237
<i>Асрарова М.У.</i>	
О СКОРИНГОВЫХ МЕТОДАХ ЭКСПРЕСС-АНАЛИЗА ДОХОДНОСТИ АКЦИЙ УЗБЕКСКИХ ЭМИТЕНТОВ.....	242
<i>Ирмухамедова Муслима Дилшодовна</i>	
UY-JOY QURILISHIDA ESKROU MEXANIZMLARINI JORIY ETISH ORQALI INVESTITSION XAVFSIZLIK VA MOLIVAVIY SHAFFOFLIKNI TA'MINLASH	247
<i>Karimov Inomjon Ortikbaevich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MASALALARI	254
<i>Kamoliddinov Ilhomjon Muxammadjonovich, Kobilov Murod Vakkosovich</i>	
TIJORAT BANKLARI RAQOBATBARDOSHLIGINING MOLIVAVIY BARQARORLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	259
<i>Axmedov Toxirjon Xasanjon o'g'li</i>	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ENERGETIKA VA ISHLAB CHIQARISH SALOHİYATINING ROLI	264
<i>Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li</i>	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS-NAZORAT TIZIMI ORQALI RISKLARNI SAMARALI BOSHQARISH	270
<i>Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich</i>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ БАНКОВСКИМИ РИСКАМИ И СТРАХОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ ОПЕРАЦИЙ В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКИНГА В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ.....	275
<i>Бахтиёров Худайберган Хамдам угли</i>	
DOIMIY BO'LMAGAN KUCH TA'SIRIDA DEFORMATSIYALANUVCHAN STANDART CHIZIQLI QATTIQ MODEL ISHLAB CHIQISH VA SONLI TAHLIL QILISH.....	282
<i>Ahmadov Ilhom Aktam o'g'li, Isomova Sabohat Islom qizi</i>	
YOUTH ENTREPRENEURSHIP AS A FACTOR OF STRUCTURAL ECONOMIC TRANSFORMATION IN UZBEKISTAN.....	290
<i>Isakjanova Saboxat Muhamedovna</i>	
МОДЕЛИРОВАНИЕ САМОВОЗБУЖДЕНИЕ НЕЯВНОПОЛЮСНОГО СИНХРОННОГО ГЕНЕРАТОРА ПРОДОЛЬНО-ПОПЕРЕЧНОГО ВОЗБУЖДЕНИЯ.....	298
<i>Пирматов Нурали Бердиёрович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Бердиёров Улугбек Нурали угли, Бердиёров Улмасбек Нурали угли</i>	
YURTIMIZDAGI EKOLOGIK SOF YOG'OCH MATERIALLARIDAN TAYYORLANGAN ORAYOMA KONSTRUKSIYALARINING CHO'ZILISHGA QARSHILIGI	305
<i>Yunusaliyev Elmurod Muhammadyaqubovich, Toshpulatov Ilhomjon Baxtiyorovich</i>	
AYDAR-ARNASOY KO'LLAR TIZIMINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA ZAMONAVIY EKOLOGIK MUAMMOLARI.....	311
<i>Aminov Hamza Husanovich, Madrimov Rajabboy Masharipovich, Xamdullayeva Aziza Baxtiyor qizi</i>	
EXPLAINABLE AI YORDAMIDA SOC UCHUN TUSHUNTIRILADIGAN KIBERXAVF ANIQLASH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH	318
<i>N.N. Jo'rayev, A.Sh. Juraboyev</i>	
QUYOSH FOTOELEKTRIK MODULLARINI SUV YORDAMIDA TOZALASH VA SOVITISH USULLARI TAHLILI	324
<i>Ibragimov Umidjon Hikmatullayevich, Qodirov Jobir Ro'zimatovich, Izomov Shahzod Niyoz o'g'li, To'yumurodov Quvonchbek Sherzod o'g'li</i>	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING QURILISH SOHASIGA INTEGRATSIYASI: ILG'OR XALQARO TAJRIBA	332
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
ФАКТОРЫ НАЛОГОВОЙ КУЛЬТУРЫ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОБИРАЕМОСТЬ НАЛОГОВ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ	339
Хакимова Ситора Ильёсжон кизи, Муталова Дилором Махамаджановна	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ЭКСПЕРТНОГО ПРОГНОЗИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ	345
Л.А. Кадырова, Б. Н. Эгамов	
О'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUG'URTA BOZORINING TUZILISHI TAHLILI	350
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUG'URTA BOZORINING TUZILISHI TAHLILI

G'oziyeva Aziza Abdusalomovna

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ORCID ID: 0000-0002-5001-4724

Annotatsiya. Maqolada sug'urta bozorining raqamli rivojlanishida nazariy yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati tahlil qilingan. Xususan, raqamli transformatsiya sharoitida sug'urta kompaniyalari faoliyatini modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish hamda mijozlarga individuallashtirilgan xizmatlar taqdim etish imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqotda sun'iy intellekt, Big Data, blokcheyn va IoT texnologiyalarining sug'urta xizmatlarini avtomatlashtirish, risklarni aniq baholash, narx siyosatini optimallashtirish va fribgarlik xavfini kamaytirishdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining 2022–2024-yillardagi rivojlanish tendensiyalari, jumladan sug'urta kompaniyalari soni, ustav kapitali, brokerlar va agentlar faoliyati hamda sug'urta mukofotlari dinamikasi tahlil qilingan. Olib borilgan tahlillar asosida sug'urta bozorini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligi, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va global raqobatbardoshlikni oshirishdagi ahamiyati bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta bozori, raqamli transformatsiya, sug'urta kompaniyalari, sun'iy intellekt, Big Data, blokcheyn texnologiyasi, IoT, sug'urta mukofotlari, risklarni boshqarish, sug'urta xizmatlari, moliyaviy barqarorlik, raqamli innovatsiyalar.

Abstract. The article analyzes the theoretical foundations of the digital development of the insurance market and the importance of implementing modern technologies. In particular, it highlights opportunities for modernizing the operations of insurance companies, improving service quality, and providing clients with personalized insurance services in the context of digital transformation. The study examines the role of artificial intelligence, Big Data, blockchain, and IoT technologies in automating insurance services, accurately assessing risks, optimizing pricing policies, and reducing fraud risks. Additionally, the development trends of the insurance market in the Republic of Uzbekistan for 2022–2024 are analyzed, including the dynamics of the number of insurance companies, charter capital, brokers and agents activity, as well as insurance premium volumes. Based on the analysis, scientific conclusions are drawn regarding the economic efficiency of insurance market digitalization, strengthening financial stability, and enhancing global competitiveness.

Keywords: insurance market, digital transformation, insurance companies, artificial intelligence, Big Data, blockchain technology, IoT, insurance premiums, risk management, insurance services, financial stability, digital innovations.

Аннотация. В статье проанализировано теоретическое основание цифрового развития страхового рынка и значение внедрения современных технологий. В частности, рассмотрены возможности модернизации деятельности страховых компаний, повышения качества услуг и предоставления клиентам индивидуализированных страховых сервисов в условиях цифровой трансформации. Исследование также охватывает роль технологий искусственного интеллекта, Big Data, блокчейн и IoT в автоматизации страховых услуг, точной оценке рисков, оптимизации страховой политики и снижении риска мошенничества. Кроме того, проанализированы тенденции развития страхового рынка Республики Узбекистан за 2022–2024 годы, включая динамику числа страховых компаний, уставного капитала, деятельности брокеров и агентов, а также объемов страховых премий. На основе проведенного анализа сформулированы научные выводы о экономической эффективности цифровизации страхового рынка, укреплении финансовой устойчивости и повышении глобальной конкурентоспособности.

Ключевые слова: страховой рынок, цифровая трансформация, страховые компании, искусственный интеллект, Big Data, блокчейн, IoT, страховые премии, управление рисками, страховые услуги, финансовая устойчивость, цифровые инновации.



KIRISH

So'nggi o'n yilliklar mobaynida sug'urta sohasi nafaqat milliy va global iqtisodiyotning eng muhim va strategik tarmoqlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda, balki jamiyat hayotida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash, barqarorlikni mustahkamlash va iqtisodiy muammolarni yumshatishda asosiy institutsional vazifalarni bajaruvchi muhim mexanizm sifatida ham o'z o'rnini sezilarli darajada mustahkamladi. Shu davrda iqtisodiy jarayonlarning tobora murakkablashuvi, global moliya bozorlaridagi raqobatning kuchayishi, texnologik integratsiyaning kengayishi hamda raqamli transformatsiyaning tezlashuvi sug'urta kompaniyalarining ichki va tashqi operatsiyalarini tubdan qayta tashkil etishni, jarayonlarni yanada samarali va shaffof qilishni, shuningdek, mijozlarga xizmat ko'rsatishda yuqori darajadagi individual yondashuvni joriy etishni talab qilmoqda. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt tizimlari, katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili, blokcheyn texnologiyasi va IoT (Internet of Things) qurilmalari kabi ilg'or texnologik yechimlarning keng joriy etilishi sug'urta kompaniyalariga nafaqat yangi xizmatlar va mahsulotlarni yaratish imkonini beradi, balki mijozlar ehtiyojlarini chuqur o'rganish, ularning xavf profilini aniq belgilash, shuningdek, individual va optimallashtirilgan sug'urta xizmatlarini taqdim etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Raqamlashtirish jarayoni kompaniyalar uchun ichki operatsiyalarni avtomatlashtirish, xarajatlarni optimallashtirish, jarayon samaradorligini oshirish va resurslarni maksimal darajada samarali taqsimlash kabi ko'plab strategik afzalliklarni taqdim etadi. Shu orqali raqamli transformatsiya mijozlar tajribasini tubdan yaxshilash, xizmatlarning tezkor, shaffof va sifatli bo'lishini ta'minlash, shuningdek, individual sug'urta mahsulotlarini yaratish va ularni mijozlar ehtiyojlariga to'liq moslashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili kompaniyalarga mijozlarning xatti-harakatlarini, moliyaviy imkoniyatlarini, ehtiyojlarini va xavf profilini chuqur o'rganish, xavflarni aniqlash va boshqarish hamda narx siyosatini optimallashtirish imkonini beradi. Bu esa sug'urta kompaniyalariga o'z faoliyatini aniq prognozlash, strategik rejalashtirishni amalga oshirish va resurslarni eng samarali tarzda boshqarish imkoniyatini beradi. Shu bilan bir qatorda ushbu jarayon kompaniyalarga bozordagi o'zgarishlarga tezkor javob berish va yangi raqamli xizmatlarni joriy etishda sezilarli ustunliklar beradi.

Blokcheyn texnologiyasi sug'urta shartnomalarini ishonchli, shaffof va o'zgarmas qilishi, firibgarlik va noto'g'ri da'volar xavfini sezilarli darajada kamaytirishi hamda jarayonlarni avtomatlashtirish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bundan tashqari, IoT qurilmalari va real vaqt rejimida ma'lumot yig'ish tizimlari sug'urta xizmatlarini avtomatlashtirilgan shaklda taqdim etish, mijozlarning ehtiyojlariga moslashgan variantlarni shakllantirish va xizmat sifatini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Natijada raqamli transformatsiya jarayoni kompaniyalar va mijozlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni mustahkamlash, xizmatlarning sifatini oshirish va sug'urta xizmatlarini individualizatsiyalash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu tarzda texnologik yondashuv nafaqat ichki jarayonlarni optimallashtiradi, balki global raqobatbardoshlikni oshiradi va sug'urta kompaniyalariga bozor sharoitlarida yanada strategik hamda barqaror pozitsiyalarni egallash imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sug'urta bozori iqtisodiy tizimning muhim institutsional tarkibiy qismi sifatida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, moliyaviy risklarni taqsimlash va xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtayi nazardan sug'urta bozorining tuzilishi, uning tarkibiy elementlari hamda rivojlanish tendensiyalari ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy jihatdan tadqiq qilingan. Xususan, N.G. Adamchuk sug'urta bozorining global rivojlanish jarayonlarini tahlil qilib, zamonaviy sug'urta tizimi milliy iqtisodiyotlar bilan bir qatorda xalqaro moliya bozorlarining ham ajralmas qismi ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, globallashtirish sharoitida sug'urta bozori tuzilmasi sug'urta kompaniyalari, qayta sug'urtalash institutlari, brokerlik tashkilotlari hamda davlat nazorat organlari o'rtasidagi murakkab o'zaro aloqalar orqali shakllanadi va rivojlanadi.

Sug'urta faoliyatining nazariy asoslari va iqtisodiy mohiyati M.M. Aleksandrova tomonidan ham keng o'rganilgan. Muallif sug'urta bozorining tarkibiy tuzilishini sug'urta xizmatlarini ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlari bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida izohlaydi. Uning ta'kidlashicha, sug'urta bozorining samarali ishlashi uchun sug'urta tashkilotlari o'rtasida raqobat muhiti, barqaror moliyaviy infratuzilma hamda ishonchli huquqiy mexanizmlar mavjud bo'lishi zarur.

Sug'urta tizimining nazariy va amaliy jihatlarini Abduraxmonov I.X., Kazanseva A.K. va Nosirova G.A. tomonidan chuqur tahlil qilingan. Ularning tadqiqotlarida sug'urta bozori iqtisodiy risklarni boshqarishning muhim mexanizmi sifatida baholanadi. Mualliflar sug'urta bozorining tarkibiy tuzilishi sug'urta kompaniyalari, sug'urtalanuvchilar, vositachilar hamda davlat nazorati organlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimi orqali shakllanishini ta'kidlaydilar. Shu bilan birga, ular sug'urta bozorining rivojlanishi iqtisodiyotning umumiy rivojlanish darajasi, moliyaviy tizimning barqarorligi hamda aholining moliyaviy savodxonligiga bevosita bog'liq ekanligini qayd etadilar.

Sug'urta faoliyatining iqtisodiy asoslari V.D. Bazilevich va K.S. Bazilevich tomonidan ham o'rganilgan bo'lib, ular sug'urta bozorining institutsional tuzilmasini batafsil yoritib bergan. Mualliflarning fikriga ko'ra, sug'urta bozori sug'urta kompaniyalari, qayta sug'urtalash tashkilotlari, brokerlar, agentlar hamda davlat regulyatorlari faoliyati orqali shakllanadigan murakkab iqtisodiy tizim hisoblanadi. Ushbu tizimning samarali ishlashi risklarni qayta taqsimlash, kapitalni safarbar etish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi.

O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanish xususiyatlari milliy iqtisodiy adabiyotlarda ham keng yoritilgan. Xususan, X.M. Shennaev va G.T. Xalikulova sug'urta xizmatlarini rivojlantirishda marketing strategiyalarining ahamiyatini tahlil qilib, sug'urta bozorining tuzilishi iste'molchilar talabi, xizmatlar diversifikatsiyasi hamda raqobat muhitiga bevosita bog'liqligini ko'rsatib beradi. Ularning fikriga ko'ra, zamonaviy sug'urta bozorida marketing mexanizmlarini samarali qo'llash sug'urta kompaniyalarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Sug'urta bozori infratuzilmasi va uning tarkibiy elementlari Q.M. Qo'ldoshev tomonidan ham o'rganilgan. Muallif sug'urta bozorining asosiy subyektlari sifatida sug'urta kompaniyalari, sug'urta vositachilari, qayta sug'urtalash tashkilotlari hamda davlat nazorat organlarini ko'rsatadi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, sug'urta bozorining barqaror rivojlanishi sug'urta xizmatlari sifati, moliyaviy barqarorlik va ishonchli nazorat tizimi bilan chambarchas bog'liq.

Xalqaro tajribada sug'urta tizimining rivojlanish xususiyatlari R. Thoyts tomonidan tahlil qilingan bo'lib, muallif sug'urta faoliyatining nazariy va amaliy jihatlarini yoritadi. Uning fikriga ko'ra, zamonaviy sug'urta bozori iqtisodiy risklarni kamaytirish, investitsion faoliyatni rag'batlantirish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. P. Cecchini va F. Heinemann tadqiqotlarida esa Yevropa moliyaviy xizmatlar bozorida sug'urta sektorining integratsiya jarayonlari tahlil qilinib, sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirishda institutsional islohotlarning ahamiyati asoslab berilgan.

Iqtisodiy nazariya doirasida sug'urta bozorining o'zni J. Sloman va M. Sutcliffe tomonidan ham tahlil qilingan. Ularning tadqiqotlarida sug'urta tizimi bozor iqtisodiyotida risklarni boshqarishning muhim instrumenti sifatida qaraladi. Mualliflar sug'urta bozorining rivojlanishi investitsiya faolligi, iqtisodiy barqarorlik va biznes muhitining yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar.

Sug'urta qarorlariga ijtimoiy omillarning ta'siri esa M.W. Krawczyk, S.T. Trautmann va G. van de Kuilen tadqiqotlarida tahlil qilingan. Ularning ilmiy ishlarida sug'urta xizmatlaridan foydalanish jarayonida ijtimoiy muhit, riskni qabul qilish darajasi va axborot omillarining muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslab berilgan. Tadqiqotchilar sug'urta bozori samaradorligi nafaqat iqtisodiy omillar, balki insonlarning riskga bo'lgan munosabati va ijtimoiy ta'sirlar bilan ham bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar.

Umuman olganda, yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar sug'urta bozorining tuzilishi va rivojlanish mexanizmlarini turli nuqtayi nazardan yoritib beradi. Mazkur ilmiy qarashlar O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozorining tarkibiy tuzilmasi, uning iqtisodiy ahamiyati hamda rivojlanish istiqbollarini chuqur tahlil qilish uchun muhim nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada sug'urta sohasini raqamlashtirish bo'yicha tadqiqot uslublari tashkil etildi. Bundan tashqari, analiz, sintez, guruhlash, taqqoslash, grafik, iqtisodiy-statistik uslublar hamda kompleks tizimli yondashuvdan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining so'nggi uch yillikdagi rivojlanish tendensiyalari bir qator muhim yo'nalishlar bo'yicha o'zgarishlarni va strategik o'zgarishlar ehtiyojini ko'rsatmoqda. 2022–2024-yillar davomida sug'urta tashkilotlari sonida sezilarli kamayish kuzatilgan. Xususan, 2022-yilda bozorda 41 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat yuritgan bo'lsa, 2023-yilda bu raqam 38 taga, 2024-yilda esa 33 taga tushgan. Shu bilan birga, hayot sug'urtasi bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar soni ham pasayib, 2022-yildagi 8 tadan 2024-yilda 5 taga yetgan. Bu holat bozorda konsolidatsiya jarayonlari kuchayganini, ya'ni faqat moliyaviy barqarorligi va raqobatbardosh xizmat ko'rsatish imkoniyati yuqori kompaniyalar faoliyatini davom ettirayotganini ko'rsatadi. Shu tendensiya, shuningdek, sug'urta sohasida sifatli raqobatni rag'batlantirish va bozorni tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini aks ettiradi.

Kompaniyalar sonining kamayishi bozorning tabiiy seleksiyasini bildiradi va raqamli texnologiyalarni joriy qilmagan yoki kapital bazasi yetarli bo'lmagan subyektlar faoliyatdan chekinishga majbur bo'lganini ko'rsatadi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi sug'urta tashkilotlari soni dinamikasi¹

Boshqa tomondan, quyida keltirilgan jadvalga e'tibor bersak, sug'urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali sezilarli darajada o'sganini ko'rishimiz mumkin. 2022-yilda 1,884 trillion so'mni tashkil etgan ustav kapitali 2023-yilda 2,298 trillion so'mga, 2024-yilda esa 2,964 trillion so'mga yetib, moliyaviy barqarorlik va kapitallashuv darajasining oshayotganini yaqqol ko'rsatmoqda. Bu o'sish bir necha jihatdan izohlanadi.

Birinchidan, kapitalni oshirish orqali kompaniyalar o'z moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirib, yuqori qiymatli sug'urta polislarini joriy etishga, risklarni samarali boshqarishga va murakkab moliyaviy risklarni qoplashga qodir bo'lmoqda. Ikkinchidan, kapitalning ortishi bozor ishtirokchilarining investitsion salohiyatini kuchaytirib, sug'urta bozorini barqarorlashtirish va bozorni tartibga solishda regulatorlar uchun qo'shimcha kafolat sifatida xizmat qilmoqda. Shu yo'nalishda o'sib borayotgan ustav kapitali kompaniyalarga yangi raqamli texnologiyalarni, masalan, sun'iy intellekt, Big Data tahlili va blokcheyn integratsiyasini joriy etishga imkon beradi. Bu esa xizmat sifatini oshirish va mijozlar ehtiyojlarini individualizatsiyalash imkonini beradi (1-jadval).


1-jadval. O'zbekiston Respublikasida sug'urta tashkilotlari soni va ustav kapitali tahlili²

Ko'rsatkichlar	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Sug'urta tashkilotlari soni	41	38	33
shu jumladan hayot sug'urtasi bo'yicha	8	7	5
Sug'urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali (mln so'mda)	1 884 111	2 298 572	2 963 695
Sug'urta brokerlari soni	7	8	11
Aktuariylar soni	5	5	5
Sug'urta agentlari soni	9 155	4 736	4 804
shu jumladan yuridik shaxslar	2 625	1 711	1 704
To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi a'zolari bo'lgan sug'urta tashkilotlari soni	25	26	25

Sug'urta brokerlari va aktuariylar sonidagi o'zgarishlar ham bozorda muhim tendensiyalarni aks ettiradi. 2022-yilda 7 ta sug'urta brokeri faoliyat yuritgan bo'lsa, 2024-yilda ular soni 11 taga yetgan. Bu raqam brokerlik xizmatlariga bozor talabining oshayotganini va sug'urta xizmatlarining vositachilik orqali kengayishini ko'rsatadi. Brokerlar mijozlar bilan bevosita aloqada bo'lib, murakkab sug'urta mahsulotlarini tanlashda, risklarni baholashda va kompaniya bilan mijoz o'rtasidagi ishonchli mexanizmni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, aktuariylar soni 5 kishida barqaror qolgan. Bu ko'rsatkich bozordagi risklarni ilmiy asosda baholash va narx siyosatini optimallashtirishdagi professional salohiyatni aks ettiradi. Aktuariylarning mavjudligi kompaniyalarga sug'urta risklarini aniq prognozlash, investitsion portfellarni shakllantirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi (2-rasm).

1 Manba: O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining byulleten ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

2 Manba: O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining byulleten ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasida sug'urta brokerlari va aktuariylar soni tahlili³

Sug'urta agentlari soni esa so'nggi yillarda sezilarli darajada kamayganini ko'rsatadi. 2022-yilda 9,155 ta agent faoliyat yuritgan bo'lsa, 2023-yilda bu raqam 4,736 taga tushgan va 2024-yilda biroz oshib, 4,804 taga yetgan. Shu jumladan, yuridik shaxslar orqali ishlovchi agentlar soni ham kamayib, 2,625 tadan 1,704 taga tushgan. Ushbu tendensiya raqamli texnologiyalar, masofaviy xizmat ko'rsatish va onlayn polislar orqali xizmat ko'rsatish imkoniyatlarining kengayishi bilan izohlanadi. Agentlar sonining kamayishi bozorda xarajatlarni optimallashtirish, xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish va mijozlar tajribasini yaxshilashga qaratilgan strategik o'zgarishlar bilan bog'liq. Shu bilan birga, bu jarayon agentlik tarmog'ining sifatini oshirish, professional malakali kadrlarni jalb qilish va mijozlarga individual yondashuvni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi a'zolari bo'lgan sug'urta tashkilotlari soni 2022–2024-yillarda barqaror bo'lib, 25–26 ta tashkilot atrofida saqlanib qolgan. Bu ko'rsatkich bozordagi moliyaviy xavfsizlik va sug'urta xizmatlarining ishonchligini ta'minlash mexanizmini aks ettiradi. Kafolatlash jamg'armasi bozorning barqaror ishlashiga va sug'urta kompaniyalarining majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishiga yordam beradi. Bu esa mijozlar va investorlar uchun qo'shimcha ishonch manbai sifatida xizmat qiladi.

O'tgan uch yillik davrda O'zbekiston sug'urta bozori raqobatbardoshlikni oshirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va raqamli texnologiyalar orqali xizmat sifatini optimallashtirish yo'nalishida izchil rivojlanmoqda. Kompaniyalar sonining kamayishi, ustav kapitalining ortishi, agentlik tarmog'ining optimallashtirilishi va brokerlik faoliyatining kengayishi bozorda sifatli xizmat ko'rsatish, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash va mijoz ehtiyojlarini individualizatsiyalash kabi strategik maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Shu tariqa sug'urta bozori nafaqat moliyaviy barqarorlikni oshirish, balki zamonaviy texnologiyalar va innovatsion xizmatlar orqali mijozlar tajribasini yaxshilash yo'lida ham izchil taraqqiyot yo'lida harakat qilmoqda. O'zbekiston sug'urta bozoridagi so'nggi yillik tendensiyalar, jumladan kompaniyalar sonining kamayishi, ustav kapitalining oshishi va agentlik tizimining optimallashtirilishi raqamli transformatsiya zaruratini yanada oshiradi. Raqamlashtirish jarayoni sug'urta kompaniyalariga ichki operatsiyalarni avtomatlashtirish, xarajatlarni optimallashtirish va mijozlarga individual yondashuvni joriy etish imkonini beradi. Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili mijozlarning risk profillarini aniqlash, sug'urta polislarini moslashtirish va xizmat sifatini oshirishga xizmat qilsa, blokcheyn texnologiyasi shartnomalarni shaffof va ishonchli qilish orqali firibgarlik xavfini kamaytiradi. Shu tarzda raqamli transformatsiya O'zbekiston sug'urta bozorining barqarorligini mustahkamlash, global raqobatbardoshlikni oshirish va mijozlar bilan samarali, shaffof hamda individual aloqalarni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

O'zbekiston sug'urta bozorini raqamlashtirish istiqbollari kontekstida Big Data texnologiyasi kompaniyalarga mijozlar, risklar va bozor ma'lumotlarini katta hajmda tizimli tarzda yig'ish va chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Bu texnologiya yordamida sug'urta kompaniyalari mijozlarning xatti-harakatlari va ehtiyojlarini aniqlab, individual risk profillarini shakllantiradi, narx siyosatini optimallashtiradi va yangi sug'urta mahsulotlarini yaratadi. Misol uchun, avtomobil sug'urtasida haydovchining real vaqt rejimidagi harakatlarini kuzatish orqali xavf darajasi aniqlanadi, sog'liqni sug'urtalash sohasida esa bemor tarixini tahlil qilish orqali individual polislar ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyasi sug'urta jarayonlarini avtomatlashtirish va tezkor qaror qabul qilish imkonini beradi: algoritmlar yordamida da'volar baholanadi, risklar prognoz qilinadi va polislar mijoz ehtiyojlariga moslashtiriladi (2-jadval).

3 Manba: O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining byulleten ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.



2-jadval. Big Data, Sun'iy intellekt va Blokcheyn texnologiyalarini sug'urta kompaniyalarida joriy etilish afzalliklari⁴

Texnologiya	Joriy etilish yo'li	Maqsad va afzalliklar	Amaliy misollar
Big Data	Mijozlar, risklar va bozor ma'lumotlarini katta hajmda yig'ish va tahlil qilish; ma'lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash	- Mijozlarning ehtiyoj va xatti-harakatlarini aniqlash - Risk profilini chuqur tahlil qilish - Narx siyosatini optimallashtirish	- Avtomobil sug'urtasi uchun haydovchining harakatlarini kuzatish - Sog'liqni sug'urtalashda bemor tarixini tahlil qilish
Sun'iy intellekt (AI)	Algoritmlar yordamida ma'lumotlarni tahlil qilish, qararlarni avtomatik qabul qilish, da'volarni baholash va xavf darajasini prognoz qilish	- Sug'urta polislarini individual moslashtirish - Da'volarni tezkor va aniq ko'rib chiqish - Risklarni oldindan bashorat qilish	- Chatbot orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish - Avtomatik da'voni tekshirish va tasdiqlash
Blokcheyn	Sug'urta shartnomalari va tranzaksiyalarni o'zgaras, shaffof va xavfsiz tarzda saqlash; smart-kontraktlar orqali avtomatlashtirish	- Firibgarlik va noto'g'ri da'volarni kamaytirish - Shartnomalarni tezkor va ishonchli bajarish - Jarayonlarni avtomatlashtirish	- Smart-kontrakt orqali avtomobil sug'urtasi to'lovini avtomatik amalga oshirish - Sog'liqni sug'urtalash da'volarini real vaqt rejimida kuzatish

Chatbotlar orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish soddalashtiriladi, avtomatik da'volarni tekshirish tizimi esa jarayonlarni tezlashtirib, xodimlar ish yukini kamaytiradi. Shu tariqa Big Data va sun'iy intellekt birgalikda kompaniyalarga xizmat sifatini oshirish, resurslarni samarali boshqarish va strategik rejalashtirishni takomillashtirish imkonini yaratadi. Blokcheyn texnologiyasi esa sug'urta shartnomalari va tranzaksiyalarni o'zgaras, shaffof va xavfsiz tarzda saqlash imkonini beradi. Smart-kontraktlar yordamida to'lovlar avtomatlashtiriladi, firibgarlik va noto'g'ri da'volar xavfi kamayadi, shuningdek jarayonlar sezilarli darajada soddalashtiriladi.

Amaliy jihatdan, masalan, avtomobil sug'urtasi to'lovlari yoki sog'liqni sug'urtalash da'volari real vaqt rejimida bajarilishi mumkin. Shu yo'l bilan blokcheyn kompaniyalarga shartnomalarni tezkor va ishonchli bajarish, ichki jarayonlarni avtomatlashtirish va mijozlar bilan barqaror, individual aloqalarni rivojlantirish imkonini beradi. Natijada Big Data, sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarini birgalikda joriy etish O'zbekiston sug'urta bozorini raqamlashtirishda yangi bosqichni ochadi, ichki jarayonlarni optimallashtirish, risklarni aniq boshqarish va xizmat sifatini oshirish orqali kompaniyalarning bozor raqobatbardoshligini sezilarli darajada mustahkamlaydi (3-jadval).

3-jadval. O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorida umumiy va hayot sug'urtasi bo'yicha mukofotlar tahlili (2022–2024-yillar holatiga ko'ra, mln so'mda)⁵

Ko'rsatkichlar	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Jami sug'urta mukofotlari	6 231 726	8 059 726	9 770 107
Umumiy sug'urta sohasidagi sug'urta tashkilotlari, shu jumladan:	4 707 047	7 737 236	9 483 746
majburiy sug'urta	491 276	632 427	664 719
ixtiyoriy sug'urta	4 215 771	7 104 809	8 819 027
Hayotni sug'urta qilish sohasidagi sug'urta tashkilotlari, shu jumladan:	1 524 679	322 491	286 362
majburiy sug'urta	26 766	35 645	48 162
ixtiyoriy sug'urta	1 497 912	286 846	238 199

O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorida 2022–2024-yillar davomida sezilarli va izchil o'sish jarayoni kuzatilmoqda. Jami sug'urta mukofotlari 2022-yilda 6 231 726 million so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilda 8 059 726 million so'mga, 2024-yilda esa 9 770 107 million so'mga yetdi. Ushbu ko'rsatkichlarning


4 Manba: O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining byulleten ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

5 Manba: O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining byulleten ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

izchil ortishi sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini, bozor doirasidagi faoliyatini kengaytirish va strategik rivojlanish imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi.

Umumiy sug'urta segmenti bo'yicha tashkilotlar tomonidan to'plangan mukofotlar hajmi ham sezilarli darajada oshgan: 2022-yilda 4 707 047 million so'mni tashkil qilgan indikator 2023-yilda 7 737 236 million so'mga, 2024-yilda esa 9 483 746 million so'mga yetdi. Ushbu o'sishning asosiy drayveri sifatida aynan ixtiyoriy sug'urta yo'nalishining keskin rivojlanishi ko'rsatib o'tish mumkin, chunki 2022-yilda 4 215 771 million so'mni tashkil qilgan ko'rsatkich 2024-yilda 8 819 027 million so'mga yetib, deyarli ikki barobar oshgan.

Shu bilan birga, majburiy sug'urta segmentida ko'rsatkichlar nisbatan sekinroq, lekin barqaror tarzda o'sishda davom etgan: 491 276 million so'mdan 664 719 million so'mga ko'tarilgan. Ushbu tendensiyalar sug'urta kompaniyalarini yangi mahsulotlarni joriy etishga, moliyaviy va operatsion resurslarni yanada samarali taqsimlashga, shuningdek, mijozlar ehtiyojlarini chuqur o'rganib, ularga mos xizmatlarni taklif etishga majbur qiladi. Shu tarzda sug'urta bozoridagi o'sish nafaqat moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi, balki kompaniyalarga strategik rejalashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini ham kengaytiradi (3-rasm).



3-rasm. Hayotni sug'urta qilish sohasidagi sug'urta tashkilotlari, mln so'mda⁶

Hayotni sug'urta qilish segmentida esa murakkab va qarama-qarshi tendensiya kuzatilgan. Umumiy mukofotlar 2022-yilda 1 524 679 million so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilda keskin pasayib, 322 491 million so'mga, 2024-yilda esa 286 362 million so'mga tushdi. Eng katta qisqartirish ixtiyoriy hayotni sug'urta qilish segmentida sodir bo'ldi: 2022-yilda 1 497 912 million so'mni tashkil qilgan ko'rsatkich 2024-yilda 238 199 million so'mga kamaygan. Shu bilan birga, majburiy hayotni sug'urta qilish segmentida kichik, ammo barqaror va izchil o'sish kuzatilgan: 26 766 million so'mdan 48 162 million so'mga oshgan. Ushbu tendensiyalar hayotni sug'urta qilish bozorida ixtiyoriy mahsulotlarning jozibadorligi pasayganini, majburiy sug'urta mexanizmlari esa barqaror va faol tarzda ishlashini aniq ko'rsatadi. Shunday sharoitda sug'urta kompaniyalari raqamli transformatsiya, jarayonlarni avtomatlashtirish va mijozlarga individual, moslashtirilgan xizmatlarni joriy etish orqali hayotni sug'urta qilish segmentini qayta jonlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa nafaqat raqobatbardoshlikni oshiradi, balki mijozlar bilan uzoq muddatli va ishonchli hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga, shuningdek, bozor talablariga moslashgan yangi mahsulotlar yaratishga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

So'nggi uch yil davomida O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorida sezilarli va izchil o'zgarishlar kuzatildi. Kompaniyalar sonining kamayishi, ustav kapitali va moliyaviy barqarorlikning oshishi, agentlar tarmog'ining optimallashtirilishi va brokerlik faoliyatining kengayishi bozorning samarali rivojlanishi hamda raqobatbardoshligini ta'minlashda asosiy omillar sifatida namoyon bo'ldi. Raqamli texnologiyalar — Big Data, sun'iy intellekt, blokcheyn va IoT — sug'urta kompaniyalariga ichki operatsiyalarni avtomatlashtirish, risklarni

6 Manba: O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining byulleten ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.



aniq baholash, narx siyosati va xizmatlarni individuallashtirish imkoniyatlarini kengaytirdi. Shu yo'l bilan raqamli transformatsiya xizmatlarning sifatini oshirib, mijozlar bilan aloqalarni mustahkamlaydi va kompaniyalarning global raqobatbardoshligini yaxshilaydi.

Shuningdek, umumiy sug'urta segmentidagi mukofotlar soni va hajmi ortishi kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini hamda bozordagi faolligini ko'rsatsa, hayot sug'urtasi sohasidagi murakkab tendensiyalar e'tiborni raqamli transformatsiya va individual xizmatlar yaratishga qaratish zarurligini namoyon etadi. Umuman olganda, O'zbekiston sug'urta bozori raqobatbardoshlik, moliyaviy barqarorlik va raqamli innovatsiyalarni joriy qilish yo'nalishida izchil rivojlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adamchuk N.G. Mirovoy straxovoy rinok na puti k globalizatsii. / N.G. Adamchuk. M.: ROSSPEN, 2004. – 591 s.;
2. Aleksandrova M.M. Straxovannya: Uchebno-metodichkoe posobie. – K.: SUL, 2002 – 208s.
3. Abduraxmonov I.X., Kazanseva A.K., Nosirova G.A. Teoriya i praktira straxovaniY. O'quv qo'llanma. – T.:Moliya-iqtisod, 2018. – 425 b.
4. Bazilevich V.D., Bazilevich K.S. Straxova sprava. – 4-te vid., pererob. i dop. - K.: Znannya, 2005. – 351 s.
5. Shennaev X.M., Xalikulova G.T. Sug'urta marketingi. O'quv qo'llanma – T.: Yangi nashr, 2012. – 212 b.
6. Qo'ldoshev Q.M. Sug'urta bozori. O'quv qo'llanma. – T.:Moliya- Iqtisod., 2011. – 65 b.
7. Thoyts R. Insurance theory and practice / R. Thoyts. - 2010. - 340 p.; Cecchini P. The Incomplete European Market for Financial Services (ZEW Economiics Studies 19.) / P. Cecchini, Jopp F. Heinemann. 2003. – 187 p.
8. John Sloman and Mark Sutcliffe. Economics for Business – Harlow.: 2001 y. page 111.
9. Krawczyk, M. W., Trautmann, S. T., & van do Kuilen. G. (2016). Catastrophic risk: social Influences on Insurance decisions. Theory and Decision, 1-18 doi:10.1007/s11238-016-0571-y Risk and Insurance Issues and Prattice. 41(2). 259-279. doi:10.1057/gpp.2015.31

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100